



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



MUHAMMAD TARAG‘AY MIRZO ULUG‘BEK KO‘RAGONIY (1394-1449)

Danabekov Azimbek Sametovich

NavDPI Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

Toshturov Shuhrat

Ilmiy rahbar: dotsent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mirzo Ulug‘bek faoliyati va ilmiy merosi haqida batafsil fikr yuritilgan.*

Ka'lit so'zlar: *Mirzo Ulug‘bek, Ziji jadidi Ko'ragoniy, Shohruh, Gavharshodbegim, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi*

Mirzo Ulug‘bek – Samarqand podshohi tarix sahifalaridan buyuk olim, o‘z davrining ma‘lum va mashhur siymosi, atoqli matematik va astronomi sifatida o‘rin olgan. Mirzo Ulug‘bek, shuningdek, Sharq Islom olamining yetuk olimlari qatorida o‘z mehnatlari va ilmiy xizmatlari bilan ilm-fan va jahon sivilizatsiyasi rivojiga ta‘sir ko‘rsatgan. Mirzo Ulug‘bek o‘rta asrlarda jahondagi eng muvaffaqiyatli rasadxonani tashkil qilgan edi. Uning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” astronomiya jadvali XVI asrda Turkiya orqali G‘arb ilm-fan doiralari ma‘lum bo‘ladi va uzoq yillar mobaynida dunyo astronomiya fanida muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan.

Mirzo Muhammad ibn Shohrux ibn Temur Ulug‘bek Qo‘rag‘oniy – 1394-yil 22-mart kuni hozirgi Ozarbayjon hududidagi Sultoniya shahrida, Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li Shohrux Mirzo oilasida dunyoga kelgan.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, 1394-yilda Amir Temur Iroqdagi Mordin qal‘asini qamal qiladi. Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida yozilishicha, Amir Temurga nabirasi tug‘ilgani haqida xabar keltiriladi va munajjimlar uning hukmdor va olim bo‘lishini bashorat qiladi. Temur ushbu xushxabar tufayli Mordin qal‘asi qamalini to‘xtatadi va uning xalqiga yuklangan tovonni bekor qiladi. Yangi tug‘ilgan nabiraga Muhammad Tarag‘ay ismi beriladi

Ulug‘bek Shohrux Mirzoning o‘g‘li bo‘lib, onasi esa turkiy qabila zodagonlaridan Gavharshodbegim edi. U bobosining Eronga yurishi paytida Sultoniya shahrida tug‘ilgan. Ulug‘bek uning asli ismi emas, balki “Buyuk hukmdor” (bek) ma‘nosini beruvchi taxallus edi, lekin bolaligidayoq u Ulug‘bek deb atala boshlanib, bu keyinchalik uning asosiy ismi bo‘lib qoldi. Ulug‘bek bolalik yillarida buvisi Saroymulkxonim tarbiyasida bo‘lgan. Saroymulkxonim o‘zining sevimli nabirasiga o‘quv-yozuvni o‘rgatgani hamda tarixiy mavzudagi hikoya va ertaklarni so‘ylab berganini taxmin qilishimiz mumkin. Bolaligidanoq u Yaqin Sharq va Hindistonning katta qismini kezib chiqdi, chunki bobosi bu hududlarda fathlarni kengaytirdi. Temur vafotidan keyin Shohrux imperiya poytaxtini Hirotga (hozirgi Afg‘onistonda) ko‘chirdi. O‘n olti yoshli Ulug‘bek keyinchalik, 1409-yilda Samarqand





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



hokimi bo‘ldi. 1411-yilda u butun Movarounnahrning hokimi deb topildi, amalda esa poytaxtga bo‘ysungan.

Shohrux to‘ng‘ich o‘g‘li Ulug‘bekni 1411-yili Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlaydi. Ulug‘bek 17 yoshida hokim bo‘lib, bobosidan farqli o‘laroq harbiy yurishlar bilan qiziqmas, ko‘proq ilm-fanga moyil edi. Afsuski, Ulug‘bekning boshlang‘ich ma‘lumoti va murabbiy hamda ustozlari haqida aniq ma‘lumot saqlanmagan. 1447-yilda otasi Shohruxning vafotidan xabar topgan Ulug‘bek Balxga jo‘nadi. Bu yerda u o‘zining marhum akasi Boysung‘urning o‘g‘li Alovuddavlaning Hirotida Temuriylar saltanati hukmronligini da‘vo qilganini eshitdi. Binobarin, Ulug‘bek Alouddavlagaga qarshi yurish qildi va Murg‘obda jangda u bilan uchrashdi. U o‘z jiyani ustidan g‘alaba qozonib, 1448-yilda Hirotga qarab yurdi. Biroq Alouddavlaning ukasi Abulqosim Bobur Mirzo unga yordamga keldi va Ulug‘bekni mag‘lub etdi. Ulug‘bek Balxga chekindi va u yerda uning hokimi, to‘ng‘ich o‘g‘li Abdulatif Mirzo isyon ko‘targanini bildi. Yana ichki urush boshlandi. Abdullatif Amudaryo bo‘yida otasining qo‘shinini kutib olish uchun qo‘shin to‘pladi. Biroq Ulug‘bek shahardagi notinchlik xabarini eshitib, hech qanday jang bo‘lmasdan turib Samarqandga chekinishga majbur bo‘ladi. Abdullatif tez orada Samarqandga yetib boradi va Ulug‘bek beixtiyor o‘g‘liga taslim bo‘ladi. Abdullatif otasini hibsdan ozod qilib, Makkaga haj qilishiga ruxsat berdi. Biroq manziliga yetib bormasdan turib otasi va ukasi Abdulazizni ham 1449-yilda qatl qildirdi.

Ulug‘bek davrida Samarqand ilm-fan o‘choqlardan biriga aylangan. U yerda 15-asrning birinchi yarmida Ulug‘bekning atrofida G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi taniqli astronom va matematiklarni birlashtirgan katta ilmiy maktab vujudga keladi. U vaqtlar Samarqandda O‘rta Osiyo haqida ajoyib asar yozgan tarixshunos Hofiziy Abri, taniqli shifokor Mavlono Nefis, shoirlar Sirojiddin Samarqandiy, Sakkokiy, Lutfiy, Badaxshiylar va boshqalar yashagan. Ular o‘z davrining eng ilg‘or fikrli va ilmiy kishilari bo‘lgan. O‘smir hukmdor shaharni imperiyaning intellektual markaziga aylantirishni maqsad qilgan. 1417–1420-yillarda Samarqanddagi Registon maydonida madrasa qurdirdi va ko‘plab islom astronomlari va matematiklarini o‘qishga taklif qildi. Ulug‘bekning astronomiya bo‘yicha eng mashhur shogirdi Ali Qushchi bo‘lib, uni “farzandi arjumandim”, ya’ni “aziz farzandim” deb atagan. Aslida Ali Qushchi uning farzandi emas, shogirdi bo‘lib, ilm sohasida ustoziga Abdulatif va Abdulazizlardan, ya’ni o‘z farzandlaridan ham sodiq va vafodor edi. Shuning uchun ham Ulug‘bek unga o‘z o‘g‘lidek qarardi. Qozizoda Rumiy Ulug‘bek madrasasining eng ko‘zga ko‘ringan muallimi bo‘lgan va keyinchalik bu o‘ringa astronom Jamshid al-Koshiy kelgan.

Ulug‘bek ilmiy merosining eng asosiysi, ma‘lum va mashhuri uning “Zij”i bo‘lib, bu asar “Ziji Ulug‘bek”, “Ziji jadidi Guragoniy” deb ham ataladi. “Zij”dan tashqari uning qalamiga mansub matematik asari “Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola”, astronomiyaga oid “Risolayi Ulug‘bek” (yagona nusxasi Hindistonda, Aligarh universiteti kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir “Tarixi arba’ ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) asaridir.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ma'lumotlarga ko'ra, Ulug'bek tibbiyot va musiqaga ham qiziqqan. Jumladan, Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarida unng she'rlaridan namunalar keltirib o'tgan.

Mirzo Ulug'bekning vafotidan so'ng Samarqanchdi olimlari asta-sekin Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bo'ylab tarqalib ketadi. Olimlar o'zlari borgan yerlarda Samarqand olimlarining yutuqlari va "Zij"ning nusxalarini ham yetkazadilar. Xususan, Ali Qushchi 1473-yil Istanbulga borib, rasadxona quradi. Shunday qilib Ulug'bekning ushbu yirik asari Turkiyada tarqaladi va u orqali Yevropa mamlakatlariga yetib boradi. Masalan, 1638-yili Istanbulga ingliz olimi va sharqshunosi, Oksford universitetining professori Jon Grivs (1602—1652) keladi. Qaytishida u o'zi bilan Ulug'bek "Zij"ining bir nusxasini Angliyaga olib ketadi. 1648-yili avval "Zij"dagi 98 yudduzning jadvalini chop etadi. O'sha yilning o'zida Grivs "Zij"dagi geografik jadvalni ham nashr etadi. 1650-yili esa u "Zij"ning birinchi maqolasining lotincha tarjimasini nashr etadi. Grivs 1652-yili mazkur oxirgi ikki ishni qayta nashr etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengimas kuch.-T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. Ahmedov Bo'riboy. O'zbekiston tarixi manbalari. T.: "O'qituvchi". 1991.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
4. Ahmedov Bo'riboy .Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. T.: "O'qituvchi" 1996.
5. Sadriddin Salim Buxoriy. Tabarruk ziyoratgohlar. T.: "Yozuvchi" 1993

